



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIGA KIRIB KELISHI VA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: **Shaxnoza Sadiyeva**

Axmedova Sevara Ruslanovna
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175781>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning ta'lim sohasiga integratsiyalashuvi va xorijiy tillarni o'qitish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, turli xildagi ijtimoiy tarmoqlar til o'rgatish samaradorligini oshirishga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar interaktiv va individual yondashuvni ta'minlab, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, shu bilan birga, til o'rganish jarayonini unumliroq qiladi. Shuningdek, maqolada innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, integratsiyalashuv, sun'iy intellekt, interaktiv yondashuv, individual yondashuv.

Kirish. Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot har bir sohada tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda, dunyoning globallasuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi ta'lim tizimiga tub o'zgarishlar olib kelmoqda. Ayniqsa xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar an'anaviy usullardan samaraliroq natijalarga erishish imkonini bermoqda. Ta'limning raqamli transformatsiyasi nafaqat o'qitish jarayonini yengillashtiradi, balki o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Shu sababli hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalar va ularning ta'lim tizimiga ta'siri

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ular quyidagilar:



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

- O'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- O'quvchilarning o'quv jarayonida olgan bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi ;
- O'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini an'anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi yangi bosqichga olib chiqdi. Quyidagi texnologiyalar ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda:

Sun'iy intellekt (AI) –Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari o'quvchilarning o'rganish jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi. AI yordamida foydalanuvchilarning bilim darajasini tahlil qilinib, ularga mos keluvchi mashg'ulotlar tavsiya etiladi.

Shuningdek AI asosida yaratilgan vositalar- Duolingo, Babbel, Rosetta Stone kabi ilovalar orqali xorijiy tillarni istalgan joyda va istalgan vaqtda mustaqil sharoitda o'rganish mumkin.

AI grammatik tekshiruvchilar: Grammarly, Quillbot kabi dasturlar yozma til ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Gamifikatsiya – gamifikatsiya o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga qo'shishni anglatadi. Gamifikatsiya asosidagi ta'lim vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Mukofot va reyting tizimi – o'quvchilar bosqichma- bosqich darajalar oshiradi.
- Missiyalar va topshiriqlar – Motivatsiyani oshiradigan maxsus topshiriqlar beriladi.
- Interaktiv o'yinlar – LingQ, Quizlet va Memrise kabi platformalar so'z yodlash va jumla tuzish jarayonini osonlashtiradi.

Bulutli texnologiyalar va masofaviy ta'lim - Google Classroom, Zoom va Moodle kabi platformalar yordamida ta'lim jarayoni yanada qulay va moslashuvchan bo'lmoqda.

Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini an'anaviy usullarga qaraganda yanada samarali va qiziqarli qiladi. O'quvchilar matn, audio va video materiallardan foydalangan holda o'z bilimlarini mustahkamlashlari, interaktiv topshiriqlar orqali esa olgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.

Chet tili fanining o'ziga xosligi shundaki, tabiiy til muhiti mavjud bo'lmagan holda, o'quvchilar uchun sun'iy til muhitini yaratish uchun eng maqbul texnologiyalarni hamda o'qitish vositalaridan keng foydalanish zaruratini talab qiladi. Shu sababli chet tilini o'qitishda multimedia vositalari taqdim etayotgan yangi imkoniyatlarni beruvchi keng ko'lamli ilovalardan foydalanilayotgani bejizga emas.

An'anaviy o'qitish usullaridan farqli o'laroq, innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, virtual reallik texnologiyalari o'quvchilarga xorijiy til muhitiga sho'ng'ish imkoniyatini beradi. Ular xorijiy til so'zlashuvchilari bilan muloqot qilish, real hayotiy vaziyatlarni simulatsiya qilish va shu orqali til bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar.

Innovatsion texnologiyalar har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda til o'rganish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan onlayn kurslar va platformalar har bir o'quvchining bilim darajasini avtomatik ravishda aniqlaydi va unga mos materiallarni taqdim etadi. Bu esa har bir o'quvchining o'ziga qulay uslubda va tezlikda ta'lim olishiga yordam beradi.

Onlayn muloqot platformalari va chatbotlar yordamida o'quvchilar o'zining til bilish darajasini yaxshilashi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt yordamida ishlovchi chat-botlar bilan suhat qurish orqali o'quvchilar grammatik va leksik bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn forumlar, muloqot guruhlar va videokonferensiyalar orqali turli madaniyat vakillar bilan suhbatlashish imkoniyati mavjud.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda uchraydigan qiyinchiliklar va ularga yechim.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O'qitish tizimida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini e'tirof etish kerak. Ularni ta'lim tizimiga joriy etilishi bilan birga bir qator muammolar ham yuzaga keladi:

Ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanmagan. Ayniqsa qishloq joylarida kompyuter sinflari, tezkor internet aloqasi va zamonaviy qurilmalar yetishmovchiligi mavjud. Bu esa o'quvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalana olish imkoniyatlarini



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

cheklaydi. Agar davlat tomonidan texnologik infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bepul yoki arzon onlayn ta'lim resurslarini yaratilsa, shuningdek, mobil texnologiyalar va oflayn rejimda ishlaydigan dasturlarni ishlab chiqilsa bu kabi muammolar oson bartaraf etiladi.

Keyingi ta'lim tizimida kuzatilayotgan muammolardan biri ko'plab o'qituvchilar innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli tajribaga ega emaslar. Ular yangi ta'lim platformalaridan foydalanishda qiynalishi yoki an'anaviy usullarga ko'proq e'tibor qaratishi mumkin. Shu kabi holatlarni oldini olish uchun o'qituvchilar uchun maxsus trening va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish, o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashish tizimini yaratish kerak.

Bundan tashqari, texnologiyalarning narxi ham bir muammo hisoblanadi, aslida. Ko'plab zaamonaviy ta'lim platformalari pullik bo'lib, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun moliyaviy jihatdan og'irlik qiladi. Masalan, ba'zi AI asosidagi ta'lim dasturlarining litsenziya narxi juda qimmat. Agar ochiq manbali (open-source) va bepul ta'lim resurslaridan keng foydalanib, AI va onlayn platformalar ishlab chiquvchilarini ko'proq bepul xizmatlar taqdim etishga rag'batlantirilsa ushbu masalada qiyinchilik bo'lmaydi.

Til o'rganish jarayonida insoniy muloqotning kamayishi - Innovatsion texnologiyalar yordamida til o'rganish jarayoni avtomatlashtirilsa ham tirik muloqot yetishmovchiligi muammo tug'dirishi mumkin. O'quvchilar orasida faqat AI yoki onlayn platformalar bilan shug'ullanadiganlar, jonli suhbatda o'zini erkin his qila olmasligi mumkin. Texnologiyalar bilan birga jonli muloqotni ham rivojlantirilsa, masalan, chet ellik o'qituvchilar yoki o'quvchilarni til o'rganish bo'yicha guruhlariga birlashib, bir-birlari bilan jonli muloqot qilishsa kutilgan natijaga erishiladi.

Xulosa. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ammo Innovatsion texnologiyalar xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ulkan imkoniyatlar yaratdi, Sun'iy intellekt, gamifikatsiya, onlayn platformalar shuningdek, bulutli texnologiyalar o'quvchilarga o'zlariga mos yondashuv orqali samarali ta'lim olish imkonini bermoqda. Biroq ularni joriy etishda qator muammolar ham mavjud bo'lib, texnologik infratuzilma yetishmovchiligi, o'qituvchilarning yetarli darajada tayyor emasligi, texnologiyalarning qimmatligi va jonli muloqotning kamayib ketishi kabi muammolar tizimli ravishda hal qilinsa,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kelajakda innovatsion texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o'rganish yanada tez, samarali va hamma uchun ochiq bo'lishi mumkin. Muhimi, texnologiyalar inson omilini to'liq almashtirmasligi, balki uni kuchaytirishi va o'quvchilarga yanada qulay ta'lim muhiti yaratib berishi lozim. Shunday qilib, texnologiyalar va an'anaviy yondashuvlar uyg'unligi orqali xorijiy tillarni o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurov, Sh. (2022). Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati. (inlibrary.uz)
2. Kushiyeva N. X. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar: onlayn platformalarning roli. "Xorijiy tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani.
3. Sayibova, Z.Y. (2023) . Innovatsion texnologiyalarning ta'lim sohasidagi o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 829-834. (tsuull.uz)
4. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni. (2021).
5. CyberLeninka. (cyberleninka.ru)